Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319822

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

STATISTIK AXBOROTLARNI SHAKLLANTIRISHDA STATISTIK KUZATISHNING AHAMIYATI

BUTANOVA DILNOZA RUSTAMOVNA
Ma'mun universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi v.b prof
butanovadilnoza@gmail.com

Statistikaning asosiy faoliyati avvalo ma'lumotlarni to'plash jarayonidan boshlanadi. Bunda asosan bu jaroyon voqea hodisani kuzatish jarayonidan boshlanadi. Kuzatish statistik tadqiqotning boshlang'ch nuqtasi hisoblanadi. Masalan, ta'lim sifatini nazorat qiluvchi shaxsga viloyatdagi oliy ta'lim muassalaridagi talabalarning o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun shu hudduddagi barcha mazkur ta'lim muassalarida kuzatuv jarayonini amalga oshirish faoliyatini amalga oshiradi.Talabalar o'zlashtirishini fanlar, yo'nalishlar kesimida tekshirish olib borishdan boshlanadi.

Shunday qilib, statistik kuzatish - o'rganilayotgan voqea – hodisa haqidagi ma'lumotlarni ma'lum bir yagona ilmiy – dasturiy vosita asosida qayd qilishga va yig'ish jarayoniga aytiladi. Bunda asosiy omili to'plangan ma'lumotlar aniq va haqqoniy bo'lishi kerak, aks holda ma'lumotlar talablarga javob bermasligi mumkin hisoblanadi. Shuningdek, kuzatish natijasida to'plangan ma'lumotlar izchillikni tashkil qilishi kerak hisoblanadi, ular bir biri bilan bog'langan holda bir butunlikdagi ma'lumotlarni shakllantirishi kerak hisoblanadi.

Ma'limotlarni to'plash jarayoni yagona metadologiya asosida olib borilishi kerak. Chunki bunda aososiy xususiyati kuzatilayotgan ma'lumotlar bir butunlikda shakllanadi. Umumiy kuzatuv ma'lumotlarini berib biladi. Masalan, talabalarning dars jarayonlariga munosabatini o'rganmoqchisiz. Tadqiqot davomida 100 nafar talaba qatnashgan Ularning barchasiga bir xil savollar berish rejalashtirilgan va javoblarni olishdan oldin respondentlarni savollarga javob berish yo'riqnomasi bilan tanishtirish to'g'ri javoblar olishga asos bo'ladi. Eng asosiysi statistik kuzatish aynan optimal vaqt omilida olib borilishi kerak hisoblanadi.

Statistk kuzatishning quyidagi turlari mavjud hisoblanadi.

	Guruh	**Turi**	**Tavsifi**	**Misol**
	Qamrov darajasiga ko'ra	**Yoppasiga kuzatish**	Butun to'plam birliklarini qamrab oladi	Aholini ommaviy ro'yxatga olish

Published: 05.06.2026
Cite this article: Butanova Dilnoza Rustamovna (2026). Statistik axborotlarni shakllantirishda statistik kuzatishning ahamiyati. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319822
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

		Tanlanma kuzatish	Bosh to‘plamdan tanlab olingan birliklar o‘rganiladi	1200 nafar aholidan 100 nafari o‘rganildi
	Vaqtiga ko‘ra	**Uzluksiz kuzatish**	Bunday kuzatish shakli hodisa sodir bo‘lishi bilanoq qayd qilinadi	Ishlab chiqarishni kuzatish
		Davriy kuzatish	Ma’lum vaqt oralig‘ida o‘tkaziladi	Oylik hisobot
		Bir martalik kuzatish	Faqat ma’lum bir vaqtda bir marta o‘tkaziladi	Maxsus so‘rovnoma

Statistik kuzatishning quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi.

1.	**Bevosita kuzatish**	o’rganilayotgan to’plam birliklarini birma-bir ko’rib, sanab, tortib va o’lchab, keyin ro’yxatdan o’tkazadi
2.	**Hujjatli**	kerak bo’lgan ma’lumotlar faqat maxsus hujjatlardan olinadi.
3.	**So‘rovnoma orqali**	kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilib, olingan javoblar kuzatish varaqasiga yoziladi

Statistik kuzatish jarayonida ma’lumotlar izchilligigini ta’minlash maqsadida uni o’tkazishdan oldin kuzatuv rejasi shakllantiriladi va shu orqali jarayon amalga oshiriladi. Mazkur reja asosida faoliyatning dasturiy- uslubiy masalari hal qilinadi.

Statistik kuzatuv dasturiy- uslubiy ta’minoti o‘z ichiga quyidagilarni oladi: statstik kuzatish maqsadi va vazifalari; kuzatish dasturi; kuzatish ob’ekti va birligi; kuzatish formulyari va yo’riqnomadan tashkil topgan hisoblanadi. Har qanday statistic kuzatuvni boshlashdan oldin faoliyat maqsadi aniqlashtirilib olinishi kerak hisobladi. Bundan keyin albatta dastur tuzish oson va samarali bo‘ladi.

Statistik kuzatish jarayonida to’plangan ma’lumotlarni qayta ishlash va foydalanish yo‘nalishlarini kengaytirish maqsadida excel dasturiy vositasidan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, statistik ma’lumotlarni shakllantirish jarayonida statistik kuzatish eng muhim va ajralmas bosqich hisoblanadi. Chunki aynan ushbu bosqichda keyingi tahlil va umumlashtirish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlar yig‘iladi. Statistik kuzatishning to‘g‘ri tashkil etilishi ma’lumotlarning aniqligi, ishonchliligi va to‘liqligini ta’minlaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi statistik axborotlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, statistik kuzatish nafaqat ma’lumot yig‘ish vositasi, balki ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sifatli o‘tkazilgan kuzatish natijalari orqali iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, aholi turmush darajasi, bozor holati kabi ko‘plab ko‘rsatkichlarni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, statistik kuzatish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ma’lumot yig‘ish samaradorligini oshiradi, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va tezkorlikni ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida statistik ma’lumotlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, statistik kuzatish — bu statistik tadqiqotlarning poydevori bo‘lib, uning sifat darajasi butun statistik tizim samaradorligini belgilab beradi. Shu sababli ushbu jarayonga jiddiy e’tibor qaratish, uni doimiy ravishda takomillashtirib borish va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —